

TURISTIK MARSHRUTLARNI ISHLAB CHIQISHDA TURISTIK MINTAQALARNING QAMRAB OLINISH DARAJASINI OSHIRISH YO'LLARI

*dots. **Abduxamidov Sarvar***

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

ORCID: 0000-0003-0530-0021

sarvarabduxamidov4@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda turistik marshrutlarni shakllantirish jarayonida mintaqalarning qamrab olinish darajasini oshirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqot natijalari keltirilgan. Mualliftomonidan mintaqaviy turistik imkoniyatlarni chuqur o'rganish, noan'anaviy va alternativ turizm yo'nalishlarini rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali hududiy qamrovni kengaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm sohasi, mintaqaviy turizm, zamonaviy turizm industriyasi, turistik marshrutlar, turistik resurslar, strategik sektor, turistik xizmatlar, raqamli texnologiyalar.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ОХВАТА ТУРИСТСКИХ РЕГИОНОВ ПРИ РАЗРАБОТКЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ МАРШРУТОВ

*доц. **Абдухамидов Сарвар***

Самаркандский институт экономики и сервиса,

Международный университет туризма и

культурного наследия «Шелковый путь»

Аннотация. В статье представлены результаты исследования, посвящённого вопросам повышения охвата регионов в процессе формирования туристических маршрутов в рамках развития туристической сферы в Узбекистане. Автором предложены научно обоснованные меры по расширению территориального охвата за счёт глубокого изучения регионального туристического потенциала, развития нетрадиционных и альтернативных направлений туризма, улучшения инфраструктуры и эффективного использования цифровых технологий.

Ключевые слова: туристическая сфера, региональный туризм, современная туристическая индустрия, туристические маршруты, туристические ресурсы, стратегический сектор, туристические услуги, цифровые технологии.

WAYS TO INCREASE THE LEVEL OF COVERAGE OF TOURIST REGIONS WHEN DEVELOPING TOURIST ROUTES

assoc. prof. **Abdukhamidov Sarvar**

Samarkand Institute of Economics and Service,
"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage

Abstract. *This article presents the results of a study dedicated to increasing the regional coverage in the formation of tourist routes as part of the development of the tourism sector in Uzbekistan. The author offers scientifically grounded proposals to expand territorial coverage by thoroughly studying regional tourism potential, developing non-traditional and alternative tourism directions, improving infrastructure, and effectively utilizing digital technologies.*

Keywords: *tourism sector, regional tourism, modern tourism industry, tourist routes, tourism resources, strategic sector, tourism services, digital technologies.*

Kirish.

Dunyo mamlakatlarida, jumladan O'zbekistonda ham, turizmning iqtisodiyotdagi roli tobora ortib, davlat byudjetining asosiy daromad manbai sifatidagi o'rni oshib bormoqda. Bu soha, ichki va xorijiy turizmning rivojlanishi orqali, YAIMning o'sishiga va aholining turmush darajasining yaxshilanishiga muhim hissa qo'shmoqda. O'zbekistonning innovatsion rivojlanish yo'lida turizm muhim o'rin tutmoqda va davlat tomonidan iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Ammo, mamlakatning turizm salohiyati va infratuzilmasi mavjud bo'lsa-da, ulardan yetarlicha foydalanilmayapti. Turizm sohasining raqobatbardoshligi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va resurslardan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, ichki hamda tashqi turistik oqimlarning ortishiga, mamlakat va hududlar iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

So'nggi yillarda turizm sohasida bir qator ijobiy tendensiyalarni kuzatishimiz mumkin. Bunga misol sifatida, xorijdan keluvchi turistlar sonining oshishi, turizm geografiyasining kengayishi va turistik xizmatlarning turlari ko'payishi kabi o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari, turistik xizmatlar sifatining oshishi, mamlakatlarning milliy mentalitetiga mos turistik xizmatlarni taklif etishi, shuningdek turistlarning xizmatlar narxi va sifatiga bo'lgan talablarining ortishi kabi tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Shu tufayli, mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda, hukumat tomonidan sohaning yanada rivojlanishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-135-sonli Qarori asosida mamlakatimizning barcha hududlarining turistik salohiyati va imkoniyatlari bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hududlarning turistik kontentlari yaratilib xalqaro darajada targ'ib qilinmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Turistik marshrutlarni ishlab chiqish, ularni shakllantirishda turistik salohiyatdan samarali foydalanish masalalar tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmayabdi. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish masalalari bo'yicha jahon miqyosida va mahalliy darajada bir qator olimlar va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ularning tadqiqotlari asosan turizm marshrutlarining samaradorligi, turistik jozibadorlik, infratuzilma, tarixiy-madaniy meros, logistika va marketing jihatlariga qaratilgan. Xususan:

Leiper (1990) turizm tizimi nazariyasi, turistik marshrutning strukturasiga alohida e'tibor berib turizmning asosiy elementlari – turist, marshrut va turistik manzilni tahlil qiladi.

Gunn (1994) turizmni rejalashtirish va marshrutlarni shakllantirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Gannning ishi turizmni strategik rejalashtirishga bag'ishlangan bo'lib, marshrutni yaratishdagi bosqichlar va ahamiyatli omillarga alohida e'tibor beradi.

Tuxliyev (2021) o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda marshrutlar tizimini yaratish, jahon standartlariga mos turizm infratuzilmasini tashkil etish, va turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

Xayitboyev va b. (2016) turizmni rivojlantirishning asoslaridan biri bo'lgan turistik marshrutlar ishlab chiqish tamoyillari va bosqichlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Muallif turistik marshrutlarning tarixi, buyuk geografik davrlardagi sayyohlarning, Markaziy Osiyolik olimlar va geograflarning, XX asrda tadqiqotlar va kashfiyotlar qilgan sayyoh-olimlarning marshrutlari, turistik marshrut ishlab chiqishning usullari, tamoyillari, marshrutlarda xizmatlar ko'rsatish, turmarshrutni amalda o'tkazish bo'yicha tadqiqot natijalarini e'lon qilgan.

Ammo, bevosita yangi yo'nalishlardagi turistik marshrutlarda mintaqalarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, hududlarning qamrab olinish darajasini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan. Bularning barchasi ushbu tadqiqot ishi bo'yicha tadqiqotlar olib borishga asos bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada taqdim etilgan ma'lumotlar turli xil statistik modellar va interfaol tahlil usullari asosida baholandi. Tadqiqot jarayonida sohaga oid tajribali mutaxassislar bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning amaliy fikrlari va takliflari hisobga olindi. Shuningdek, hududlar bo'yicha turizm marshrutlarining qamrov darajasini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Bu yondashuv doirasida hududiy infratuzilma, madaniy meros obyektlari, transport qulayligi va mehmonxona xizmatlari singari bir nechta omillar chuqur tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuv turizm marshrutlarini shakllantirish samaradorligini oshirish, ularni hududlar bo'yicha muvozanatlashtirish hamda turistik salohiyatni to'liq ochib berish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur resurslarga ega. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Bugungi kunda dunyoviy ahamiyatga molik yuzlab tarixiy yodgorliklar, yurtimizda yashayotgan xalqlarning ma'naviy-etnik merosi, tog'lar, dasht va cho'llarni o'z ichiga olgan go'zal va betakror tabiati hamda zamonaviy infratuzilma – bularning barchasi dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarni O'zbekistonga jalb qilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "....Chust pichog'i, Samarqand noni, Marg'ilon adrasi, Sherobod anori, Oltiariq va Parkent uzumi, Xorazm qovuni, Surxondaryo xurmosi kabi mashhur brendlarni hududiy mansubligi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazib, xalqaro bozorda faol targ'ib qilish mumkin...." (President.uz., 2020) ekanligi ham turistik mintaqalarimizning jozibadorligini yanada oshiradi.

Ammo, ta'kidlash lozimki, mamlakatimizning turistik resurslari hali to'laligicha o'rganilgani yo'q. Ayrim hududlardagi resurslar faqatgina mahalliy aholigagina ma'lumligicha qolmoqda. Shunday ekan, ularni yangi turistik marshrutlar ishlab chiqishda foydalanish uchun har tomonlama tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda xukumatimiz tomonidan turizm sohasiga milliy iqtisodiyotning strategik sektori maqomining berilishi, uning istiqbolda rivojlanishiga katta zamin yaratdi. Shu tufayli, yurtimiz bo'ylab sayohat qiladigan mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun yaratiladigan turistik marshrutlarimizning jozibadorligini va bu orqali turistik mahsulotlarimizga bo'lgan turistlarning qiziqishini oshirish talab qilinmoqda.

Turizmni rivojlantirishning muhim asoslaridan biri turistik resurslarga marshrutlar ishlab chiqish hisoblanadi. Turistik marshrutlarni ishlab chiqishning turizm rivojiga ta'siri nazariy jihatdan yana bir imkoniyatga bog'liq. Bu imkoniyatlar turizm ob'ektida va turizm marshruti davomida turistlarga xizmat qiladigan infratuzilmalarning hosil bo'lishidir. Turistik resursga - ob'ektga turistlarning kelishi boshlanganidan mahalliy aholida turistlarga xizmatlar ko'rsatish istagi paydo bo'ladi, turistlarning nimalarga qiziqishini, ularning ehtiyojlarini o'rgana boshlaydi. Shu tariqa turistik ob'ektda va turistik marshrut bo'ylab o'ziga xos bo'lgan kichik-kichik turistik infratuzilmalar paydo bo'ladi.

"Turistik marshrutlar yaratishning yana bir muhim tomoni shundaki, turistik marshrutda turistik oqimning kuchayishi ichki turizmda ham xalqaro turizmda ham ellar, xalqlar va millatlar o'rtasida tanishuv, do'stlashuv, o'zaro hamkorlik rishtalari hosil bo'ladi. Hozircha bunday do'stona aloqalar asosan shaharlar aholisi bilan chet elliklar o'rtasida yuz bermoqda. Bu holatning asosiy sabablari chet ellik turistlarni hanuzgacha shaharlarimizdan tashqaridagi tabiat mintaqalariga, landshaftlariga, qo'riqxonalar yoki suv havzalariga jalb qila olmaganimizdadir" (Hayitboyev, Haydarov va boshq., 2016). Bu erda qayd etilishicha, turistik marshrutlarning samarali tashkil etilishi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki xalqaro va ichki darajada madaniy aloqalar, do'stlik va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bunda ellar, xalqlar va millatlar o'rtasida madaniy almashinuv sodir bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, global hamkorlik, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida mavjud bo'lgan boy turistik resurslar, madaniy meros, shuningdek, har bir mintaqaga xos noyob urf-odat va an'analardan samarali foydalanish orqali raqobatbardosh va jozibador turistik mahsulotlar yaratish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy turizm sohasining rivojlanish tendensiyalari shuni ko'rsatmoqdaki, turistik mahsulotlarning xilma-xilligini ta'minlash va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsion yondashuvlarni joriy etish sohani rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.


Shu bilan birga, milliy turistik salohiyatni jahon miqyosida targ'ib qilish, xalqaro standartlarga mos infratuzilmani yaratish va raqamli marketing vositalaridan foydalanish orqali turizm industriyasining global raqobatbardoshligini oshirish zarur. Bu jarayonda ekologik, agrar, gastronomik, tibbiy va ziyorat turizmi yo'nalishlarini yanada rivojlantirish, shuningdek, har bir hududning noyob madaniy va tabiiy merosini ommalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xususan, har bir viloyatning sayyohlik salohiyatini kompleks tadqiq etish va ular asosida innovatsion turistik marshrutlar ishlab chiqish mamlakatimizda barqaror turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat ichki va xalqaro turistlar oqimini oshirish, balki mahalliy aholining iqtisodiy faolligini ham rag'batlantirish imkonini yaratadi.

Turizm sohasini barqaror rivojlantirish, uni yangi bosqichlarga olib chiqish, yangi yo'nalishlardagi turistik mahsulotlarni ishlab chiqishda hududlarning turistik marshrutlarda qamrab olinish darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi "O'zbekistonda turizm" nomli statistik to'plami ma'lumotlari bo'yicha, bugungi kunda respublikamiz hududlari bo'yicha ishlab chiqilgan 149 dan ortiq turdagi turistik marshrutlar faoliyat ko'rsatayotganligini ko'rishimiz mumkin. Statistik to'plamda keltirilgan turistik marshrutlarda O'zbekiston Respublikasi hududlarining turistik salohiyatidan foydalanish holati quyidagi natijani ko'rsatmoqda (1-rasm).


"Turizm o'quv-konsalting markazi" DUK tomonidan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasida turistik faoliyat sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan turistik qatnovlar kuzatuvlari asosida ro'yxati shakllantirilgan 149 ta turistik marshrutlarning Respublikamiz viloyatlarini qamrab olish darajasi aks ettirilgan. Bu ko'rsatkichlar 149 ta turistik marshrutning qancha qismida hududlar, ya'ni ulardagi turistik resurslar ishtirok etayotganligini ko'rsatib turibdi.



1-rasm. Turistik marshrutlarda mamlakatimiz hududlarining qamrab olinish darajasi (%)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining "O'zbekistonda turizm" nomli statistik to'plam ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

Mavjud tahlillarga asosan, hozirgi vaqtda faoliyat yuritayotgan turistik marshrutlar asosan an'anaviy yondashuvlar asosida shakllantirilgan bo'lib, ular mamlakatimizning barcha hudud va turizm salohiyatiga ega destinatsiyalarni to'liq qamrab olmagan. Ayni paytda turistik yo'nalishlarning aksariyati an'anaviy tarixiy va madaniy meros obyektlariga yo'naltirilgan bo'lib, 149 ta turistik marshrutlarning ishlab chiqilishida ishtirok etishi bo'yicha asosiy e'tibor Toshkent (93,29 %), Samarqand (68,46 %), Buxoro (67,79 %) va Xorazm (51,01 %) kabi turizm markazlariga qaratilmoqda. Biroq, mamlakatning boshqa hududlaridagi sayyohlik salohiyati yetarlicha o'zlashtirilmagani kuzatilmoqda.




2-rasm. Jami turistik marshrutlarda hududlarning qamrab olinish holati

Manba: "Turizm o'quv-konsalting markazi" DUK tomonidan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasida turistik faoliyat subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan turistik qatnovlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xususan, Andijon (5,37 %), Namangan (4,7 %) va Jizzax (1,34 %) viloyatlarida turistik marshrutlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo'lib, ushbu hududlarning tarixiy, madaniy va ekoturizm imkoniyatlari to'liq foydalanish e'tibordan chetda qolayotganligidan dalolat bermoqda. Shuningdek, Sirdaryo viloyati mamlakatdagi mavjud turistik tarmoqdan butunlay chetda qolayotgani tahlillar davomida aniqlangan.

2-rasmda O'zbekiston hududlarining jami turistik marshrutlarda qamrab olinish holati foizlarda aks ettirilgan. Unga ko'ra Toshkent viloyati – 22,3%ni tashkil qilgan holda, eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, turizm markaziy rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Bu esa mazkur hududda transport infratuzilmasi, madaniy ob'ektlar va mehmonxonalar tarmog'i yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari tarixiy obidalari, tarixiy va madaniy turistik salohiyati bilan mashhur, shu bois ushbu hududlar mos ravishda 16,4%, 16,2% hamda 12,2% turistik marshrutlarda keng qamrab olingan. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari mavjud turistik salohiyatlaridan samarali foydalanmasliklari natijasida turistik marshrutlarda foydalanilish holati qoniqarsiz holatda bo'lib, mos ravishda bor yo'g'i 0,1% va 0,2% natijani ko'satmoqda. Umuman olganda, markaziy va tarixiy hududlar (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm) turistik marshrutlarda katta ulushga ega. Bu esa, turistik marshrutlarda kamroq qamrab olingan hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.



3-rasm. Turistik marshrutlarni takomillashtirish omillari va ularning hududlarni qamrab olish darajasini oshirish yo'llari

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

Bu holat mamlakatda turizmni har tomonlama rivojlantirish, hududlar bo'ylab teng taqsimlangan sayyohlik infratuzilmasini yaratish, noan'anaviy va alternativ turizm yo'nalishlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ekologik, agrar, ziyorat, rekreatsion va sanoat turizmining rivojiga ko'proq e'tibor qaratish, mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish zarur. Bunda raqamli texnologiyalardan foydalanish, targ'ibot va marketing strategiyalarini takomillashtirish ham turizm sohasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu tufayli, turistik marshrutlar samaradorligini oshirish va ularning hududlarni qamrov darajasini kengaytirish turizm sohasining o'sishiga xizmat qiladi (3-rasm). Shu sababli, turistik yo'nalishlarni takomillashtirish va yangi imkoniyatlarni izlash muhim masalalardan biridir.

Turistik marshrutlar samaradorligini oshirish va ularda turistik mintaqalarni keng qamrab olish uchun innovatsion yondashuv va strategik rejalashtirish zarur. Infratuzilmani takomillashtirish, yangi marshrutlarni ishlab chiqish va reklama-tashviqot ishlarini kuchaytirish orqali turizm sohasini yanada rivojlantirish mumkin. Bunda davlat va xususiy sektorning samarali hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Xulosa va takliflar.

Turistik marshrutlar samaradorligini oshirish va ularda turistik mintaqalarni keng qamrab olish jarayonini takomillashtirishda bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

- turistik mahsulotlarning xilma-xilligini oshirish, ekoturizm, gastronomik, agrar, tibbiy va ziyorat turizmi kabi yo'nalishlarni rivojlantirish sohaning barqaror o'sishini ta'minlaydi;

- turistik marshrutlar davomida xizmat ko'rsatuvchi ob'ektlarning yaxshilanishi mahalliy aholining iqtisodiy faolligi va turistlar ehtiyojlariga javob berish darajasini oshiradi;

- turizm sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, turistik kontentni yaratish va tahlil qilishda yangi metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi;

- davlat-hususiy sheriklik asosida turistik ob'ektlarni rivojlantirish hamda mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali sohaning investitsion jozibadorligini oshirish mumkin;

- mavjud turistik marshrutlarni qayta ko'rib chiqish va mamlakatning kam darajada qamrab olinayotgan viloyatlaridagi turizm salohiyatini to'liq tadqiq qilish orqali yangi marshrutlar yaratish zarur;

- har bir hududning sayyohlik salohiyatini targ'ib qilishda raqamli platformalardan foydalanish, milliy brendlarni jahon bozorida ilgari surish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Abdukhamidov, S.A. (2019). *DISTINCTIVE FEATURES OF REGIONAL TOURISM DEVELOPMENT. Theoretical & Applied Science*, (4), 337-341.

Abdukhamidov, S., Makhmudova, A., & Mukhamadiev, A. (2022). *Development of Tourist Routes and the Formation of Attractive Tourist Products. Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(3), 129-132.

Amriddinova, R. S., & Abdukhamidov, S. A. (2021). *Factors for Determining the Specialization of the Regions of the Republic of Uzbekistan in Tourism and the Assessment of Tourist Attractiveness. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 2(10), 51-55.

Gunn, C. A. (1994). *Tourism Planning: Basics, Concepts, Cases*. Taylor & Francis.

Hayitboyev R. va b. (2016) *Turizm marshrutalarini ishlab chiqish texnologiyasi*. –S.: SamISI.

Hayitboyev R., Haydarov S.A., Abduhamidov S.A. va b. (2016) *Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. O'quv qo'llanma.* –S.: -179 b.

Leiper, N. (1990). *Tourist attraction systems. Annals of Tourism Research*, 17(3), 367–384.

President.uz. (2020). *Интеллектуал мулк объектларини муҳофаза қилиш масалалари муҳокама қилинди.* [online] Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/3887>.

Suyunovich, T. I., & Adhamovich, A. S. (2019). *DIRECTIONS OF ACTIVATION OF INNOVATIVE ACTIVITIES OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN FORMING INNOVATIVE ECONOMY. VVK: 75.81 T 88, 235.*

Tuxliyev I.S. va b. (2021) *Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. Fan va texnologiyalar.*